



Javlon ABDURASULOV

PhD, o'qituvchi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: jabdurasulov@uwed.uz, ORCID 0009-0006-1553-1471,

PhD, O.Musayev taqrizi asosida

XALQARO TASHKILOTLAR DOIRASIDA O‘ZBEKISTON VA AFG‘ONISTON MUNOSABATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Afg‘oniston muammosining xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida talqin qilinishi, xususan, Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT), Yevropa Ittifoqi (YI) hamda O‘zbekiston Respublikasining yondashuvlari Mintaqaviy Xavfsizlik Kompleksi nazariyasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda “Tolibon” hokimiyatga kelganidan keyingi davrda xalqaro hamjamiyatning Afg‘onistonga nisbatan tutgan siyosiy pozitsiyalari o‘zaro taqqoslanadi. ShHT tomonidan pragmatik va muloqotga asoslangan yondashuv ilgari surilgani, YI esa inson huquqlari va demokratik qadriyatlarini ustuvor qo‘ygan holda ehtiyotkor siyosat yuritgani ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Afg‘oniston, ShHT, Yevropa Ittifoqi, O‘zbekiston, “Tolibon”, mintaqaviy xavfsizlik, integratsiya, xalqaro tashkilotlar, Markaziy Osiyo, tashqi siyosat.

RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND AFGHANISTAN WITHIN THE FRAMEWORK OF INTERNATIONAL ORGANIZATIONS

Annotation

This article analyzes the interpretation of the Afghan issue within the framework of international and regional organizations, particularly the approaches of the Shanghai Cooperation Organization (SCO), the European Union (EU), and the Republic of Uzbekistan based on the Regional Security Complex Theory. The study compares the political positions of the international community toward Afghanistan after the Taliban came to power. It is scientifically substantiated that the SCO promoted a pragmatic and dialogue-based approach, while the EU pursued a cautious policy prioritizing human rights and democratic values.

Keywords: Afghanistan, SCO, European Union, Uzbekistan, Taliban, regional security, integration, international organizations, Central Asia, foreign policy.

ОТНОШЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА И АФГАНИСТАНА В РАМКАХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Аннотация

В данной статье анализируется интерпретация афганской проблемы в рамках международных и региональных организаций, в частности подходы Шанхайской организации сотрудничества (ШОС), Европейского союза (ЕС) и Республики Узбекистан на основе теории регионального комплекса безопасности. В исследовании проводится сравнительный анализ политических позиций международного сообщества в отношении Афганистана после прихода к власти движения «Талибан». Научно обосновывается, что ШОС продвигает прагматичный и диалоговый подход, тогда как ЕС проводит осторожную политику, ориентированную на приоритет прав человека и демократических ценностей.

Ключевые слова: Афганистан, ШОС, Европейский союз, Узбекистан, «Талибан», региональная безопасность, интеграция, международные организации, Центральная Азия, внешняя политика.

Kirish. XXI asrda Afg‘oniston muammosi xalqaro xavfsizlik tizimining eng murakkab va dolzarb masalalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu mamlakatdagi siyosiy beqarorlik, terrorism, ekstremizm, noqonuniy migratsiya va narkotrafik bilan bog‘liq tahdidlar nafaqat Markaziy Osiyo, balki global xavfsizlik muhitiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, 2021-yilda “Tolibon” harakatining hokimiyatni qo‘lga olishi Afg‘oniston masalasiga xalqaro tashkilotlar va yirik geosiyosiy kuchlarning yondashuvlarini qayta ko‘rib chiqishga sabab bo‘ldi.

Mintaqaviy Xavfsizlik Kompleksi nazariyasiga ko‘ra, xavfsizlik muammolari geografik jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bir davlatdagi beqarorlik qo‘shni davlatlarga ham bevosita ta‘sir qiladi. Shu nuqtai nazardan, Afg‘oniston Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi strategik hudud sifatida mintaqaviy xavfsizlik tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. B.Buzan tomonidan ilgari surilgan mazkur nazariya asosida xalqaro tashkilotlarning Afg‘oniston masalasidagi siyosatini tahlil qilish dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

SHHT va YI doirasida. 2021-yili Dushanbeda bo‘lib o‘tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT)ning favqulodda sammitda “Tolibon”ga Afg‘onistonning qo‘shnilari uchun xavf tug‘dirmasligini isbotlash uchun vaqt berishga qaror qilingani haqida Vladimer Norov alohida urg‘u berib o‘tgandi.[1] YI esa “Tolibon” rejimini qonuniy deb tan olmaslikka qaror qildi va hokimiyat harbiylar tomonidan saqlab qolinsa, Afg‘oniston xalqaro miqyosda yakkalanib qolish bilan tahdid qilingandi.[2] Albatta, tahlillarimizga ko‘ra, ikkita tashkilotning “Tolibon”larga nisbatan munosabatlarda farq mavjud. Tadqiqotchi sifatida Afg‘onistondagi iqtisodiy loyihalarni davom ettirish lozim ekanligini qo‘llab-quvvatlaymiz. “Tolibon”ni yakkalab qo‘ymaslik orqali, ShHTning o‘z a‘zolariga mintaqaviy barqarorlikni saqlash uchun strategik imkoniyat beradi.

“Tolibon”ni muloqotga jalb qilish orqali chegaralardagi ekstremizm tahdidlarini kamaytirishi mumkin. Hamda Afg‘oniston orqali tranzit imkoniyatlarini rivojlantirish savdo yo‘llarini ochib berishi mumkin. YI Afg‘oniston bilan bevosita chegaraga bo‘lmaganligi va iqtisodiy manfaatlarini yuqori

bo'lmagani uchun ko'proq kuzatuvchi pozitsiyada fikrlar bildirmoqda deb baholashimiz mumkin. YI o'zlarining milliy manfaatlaridan kelib chiqib "Tolibon"ni yakklash siyosati Afg'onistonni o'z ichiga olgan mintaqaviy jarayonlardan chetlatishi mumkin. Bu Markaziy Osiyodagi davlatlar uchun xavfsizlik va savdo imkoniyatlarini rivojlantirishni cheklaydi. Markaziy Osiyo davlatlari uchun ShHTning pragmatik yondashuvi uzoq muddatli xavfsizlik va iqtisodiy manfaatlarini ta'minlashda foydaliroq bo'lib tuyuladi. YI ning "Tolibon"ni tan olmaslik pozitsiyasi esa uzoq muddatda barqarorlikka hissa qo'shishi mumkinligi bilan oqlanasa-da, ammo mintaqaviy manfaatlar nuqtai nazaridan yetarlicha samarali emas. Shu sabab, Markaziy Osiyo davlatlari ShHT bilan yaqinroq hamkorlik qilib, YI bilan parallel muloqot orqali o'z pozitsiyalarini muvozanatlashtirishi qo'llab-quvvatlaymiz. Binobarin, Buyuk britaniyalik jurnalist Jeyms Fergusson, o'zining "Tolibon: Noma'lum Dushman" kitobida Afg'onistonda urush asosan G'arbnning "Tolibon" tabiatini noto'g'ri tushunishi tufayli murakkab holga kelganini ta'kidlaydi. G'arb haliyam "Tolibon"ni qora turbantli, soqolli, qattiqqo'l, fanatiklarni Kalashnikov va Qur'on bilan ko'rib chiqqan bo'lsada, Fergussonning fikricha, "Tolibon" aslida shunchaki noto'g'ri tushunilgan, ular o'ylanganidek yomon emas degan g'oyalari naqadar munozarali holat[3]. Bizningcha, G'arbnning ilmiy hamda siyosiy qarorlar qabul qiladigan vakillari orasida ham bir-biri nomutanosib bo'gan qarashlar kuzatilmoqda.

Afg'oniston bo'yicha mutaxassis Xaydarov Abdusamad "ShHTda hali foydalanilmagan salohiyat mavjud. "ShHT- Afg'oniston" bo'yicha muloqot guruhi ushbu mamlakatga insonparvarlik yordami ko'rsatish va iqtisodiyotni tiklash masalasini birinchi o'ringa qo'yadi, deysingha to'liq asos bor" [4] ekanligiga xalqaro hamjamiyatni diqqat e'tiborini qaratgan edi. Voqealar rivojiga ko'ra bizningcha, hozirda O'zbekiston va Xitoy tashabbuslari bilan ShHT doirasida Afg'onistonda faol harakatlar amalga oshirilmogda.

2021-yil "ShHT - Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (KXShT)" formatidagi uchrashuvda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Afg'onistondagi vaziyat bo'yicha maxsus xizmatlar, ShHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi Ijroiya qo'mitasi va KXShT Sekretariyati o'rtasidagi amaliy hamkorlikni kengaytirishni taklif qildi. Ammo o'sha yerda O'zbekiston prezidenti Afg'onistonning yangi hukumatini tan olishga bosqichma-bosqich o'tishni taklif etdi va bu maqsadda ShHT va KXShT ga umumiy strategiya ishlab chiqishni taklif qildi.[5] Shavkat Mirziyoyevning yana bir taklifi: Afg'onistonda allaqachon boshlanib ketgan ijtimoiy-iqtisodiy va infratuzilma loyihalarini davom ettirish zarurligini ta'kidladi. Shunday qilib, O'zbekiston uchun eng muhim maqsadlaridan biri Afg'onistonda infratuzilma, transport va energetika loyihalarini amalga oshirishga imkon beradigan sharoitlarni yaratishdir, bu loyihalar Janubiy Osiyo va O'rta Sharqqa mo'ljallangan.

2023-yilda "Tolibon" harakati ShHT sammitlarida ishtirok etish istagini bildirgan holda, tashkilot doirasidagi muhokamalarda Afg'onistonning kuzatuvchi davlat sifatidagi ishtirokini o'zining ajralmas huquqi deb e'lon qildi. Biroq, toliblar 2023-yil iyun oyida bo'lib o'tgan ShHTning navbatdagi sammitiga taklif qilinmadi. Tashkilotning 23-onlayn yig'ilishida Hindiston Bosh vaziri tomonidan e'lon qilingan rezolyutsiyada Afg'onistonda barcha siyosiy, diniy va etnik guruhlarni o'z ichiga olgan koalitsion hukumat tuzish zarurligi ta'kidlandi [6] ShHTning a'zo davlatlari Afg'onistondagi vaziyatni tezroq barqarorlashtirish mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik uchun muhim omil ekanini ta'kidladilar. Tendensiyalarni kuzatgan holda bizningcha, afg'on muammosini samarali hal qilish borasida ShHT doirasida O'zbekiston-

Xitoy-Hindiston strategik hamkorligini yanada kuchaytiradigan bo'lsa, barqarorlikka olib kelishga xizmat qiladigan umumiy yondashuvlar yuzaga kelishni manfaatlar mushtarakligidan bilib olishimiz mumkin.

Eldor Aripov fikriga ko'ra, Afg'oniston muammosini hal etishda zarur mexanizmlar va resurslarga ega bo'lgan ShHT muhim rol o'ynashi mumkin. Ushbu mamlakatda siyosiy kelishuv masalalarini muhokama qilish va sa'y-harakatlarni birlashtirish maqsadida, O'zbekiston tomonidan "ShHT- Afg'oniston" formatida davlatlar, kuzatuvchilar va muloqot bo'yicha hamkorlar ishtirokida yuqori darajadagi uchrashuvlarni muntazam o'tkazib borish taklif etilgan[7]. Bu jarayonlar xalqaro tashkilotlar doirasida Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlar jadallashganidan yana bir karra isbotini topayotganidan dalolat beradi. F. Starr tomonidan Afg'onistondagi mavjud xavfsizlik, boshqaruv, iqtisodiyot va madaniyat bilan bog'liq ichki muammolarning ko'pi faqat milliy emas, balki mintaqaviy tusga ega ekanligi bildirilgan[8]. Vudrou Wilson markazining Janubiy Osiyo mintaqasi institutining direktori Michael Kugelman ham G'arb siyosatchilarni Afg'onistonni yolg'iz qoldirganliklarni tanqid qilgan edi. Afg'onistondagi beqarorliklar uning qo'shnilari hamda Yevropa uchun qanday muammolar tug'dirayotganini anglamayotganligini qo'shimcha qilgandi[9]. Bizningcha, afg'onlarni o'z muammolari bilan yolg'iz qoldirish masalani ijobiy yechimga olib keltirmaydi. Olimlar tomonidan afg'on muammosini ijobiy hal qilishga qaratilgan munozaralar albatta quvonarli. Ammo, siyosiy kuchlar o'z manfaatlari yo'lida foydalanishni afg'on masalasini ijobiy hal qilinishi orqaga surib kelmoqda. "Tolibon" vakillarini ham hozirgi vaziyat uchun ayblash xato deb hisoblaymiz, ular yillar davomida shakllanib kelgan mavjud vaziyat kelishdi.

BMT doirasida. Sh.Mirziyoyev 2021-yil sentabr oyidagi ShHT sammitida Afg'onistonning 9,5 milliard dollarlik muzlatib qo'yilgan mablag'lar yuzasidan ijobiy yechim topish va Afg'onistonga ijtimoiy muammolarni hal qilishda ko'maklashishga chaqirgani[10] afg'on muammosini hal qilishda belgilangan xalqaro normalar doirasida liberal jihatdan har qanday sa'y-harakatlarga tayyor ekanligini ko'rsatgan edi Oradan bir necha kun o'tib, BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasida O'zbekiston Prezidenti BMT huzurida Afg'oniston bo'yicha doimiy qo'mita tashkil etish zarurligini ta'kidlagani[11] esa Afg'onistonni o'z muammolari bilan yolg'iz qoladigan yakkalanishining oldini olish edi. Kuzatuvlarimizga muvofiq, muammoga o'z vaqtida yechim topmaslik, uni kechiktirish mintaqamiz uchun ko'plab salbiy oqibatlar olib kelishi balki tashqi kuchlarni o'z manfaatlari yo'lida foydalanish uchun bo'shliq hosil bo'lishiga olib keladi. Shuningdek, noyabr oyida Samarqand shahrida BMT shafeligida o'tkazilgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiyada Afg'onistonni mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga faol jalb etishga qaratilgan tashabbuslar taqdim etildi[12]. O'zbekiston va Afg'oniston Prezidentlari o'rtasida oliy darajada bo'lib o'tgan uchrashuvlar esa ushbu yo'nalishdagi ijobiy pozitsiyani o'zaro manfaatli kelishuvlar orqali yanada mustahkamladi. Turkiya tashqi ishlar vaziri Mevlyut Chavusho'g'lu Toshkent konferensiyasi Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishda muhim o'rin tutishini, bu beqarorlikka sabab bo'layotgan kuchlarning o'zaro yarashuviga oid jarayonni tezlashtirishga yordam berishini qayd etdi[13].

O'zbekiston BMT doirasida Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlash borasida muntazam sa'y-harakatlarni amalga oshirib kelmoqda. Xususan, 2022-yilda Shavkat Mirziyoyevning Afg'oniston bo'yicha tashabbusi BMT

Xavfsizlik Kengashida taqdim etildi. Unda xavfsizlikni ta'minlash masalasida ijtimoiy muammolarga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, afg'on xalqi hech qachon urush boshlamaganligi, barcha mojarolar afg'on zaminiga tashqaridan olib kelangani alohida ta'kidlandi[14]. Ushbu qarashlar afg'on xalqi o'z taqdirini o'zi belgilashi zarurligi hamda tashqi aralashuvni kamaytirishga xalqaro hamjamiyat e'tiborini

qaratishga xizmat qilib qildi. Ushbu munosabatlar O'zbekiston tashabbuslari xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy qabul qilinayotganini tasdiqlaydi va tahsinga sazovordir.

Tendaensiyalarni xronologik tasvirlaydigan bo'lsak tushunish tahlil xulosa chiqazish samarali bo'ladi. 2017-yil Afg'oniston mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim omil sifatida yangicha yondashuv e'tirof etildi. 2020-yilda Afg'onistonni mintaqaviy integratsiya jarayonlariga faol jalb etish va uni Markaziy Osiyoning ajralmas qismi sifatida tan olish masalasiga alohida urg'u berildi. 2021-yilda Kobulni xalqaro maydonda izolyatsiya qilishga yo'l qo'ymaslik zarurligi ta'kidlangan bo'lsa, 2023-yilda Afg'oniston aktivlarini blokdan chiqarish hamda uni mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga keng jalb etish takliflari ilgari surildi. Shu bilan birga, ushbu nutqlarda Markaziy Osiyo faqat mintaqaviy ustuvorlik doirasidan chiqib, global manfaatlar markaziga aylanayotgani, xavfsizlik kun tartibi esa iqlim muammolari bilan boyitilayotgani qayd etildi. 2025-yilgi sessiyada Prezident Sh.Mirziyoyev Afg'onistonda yirik iqtisodiy va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish, mazkur mamlakat orqali xalqaro transport va energetika yo'laklarini rivojlantirish tashabbusini yana bir bor ilgari surdi.

Mazkur tendensiyalar O'zbekistonning Afg'oniston masalasidagi yondashuvi ijobiy yo'nalishda rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. Ko'rinish turibdiki, O'zbekiston Afg'onistonga nisbatan aniq, ravshan va o'zgarmas pozitsiyaga ega. Bu holat xalqaro hamjamiyatning Afg'onistonga nisbatan qarashlari o'zgarishiga, uni doimiy beqarorlik manbai emas, balki iqtisodiy imkoniyatlar makoni sifatida ko'ra boshlashiga sabab bo'lmoqda. Ijobiy fikrlarning shakllanishi esa afg'on diyorida barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha izchil va faol ishlari olib borilayotgani xalqaro maydonda bir necha bor e'tirof etilgan. Masalan, 2022-yil 30-31- martda Xitoyda Afg'oniston qo'shni mamlakatlari vakillari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda O'zbekistonning sobiq investitsiyalar va tashqi savdo vaziri Sardor Umurzaqov Afg'onistondagi vaqtincha hukumatni xalqaro tan olish uchun mexanizmlar va mezonlarni ishlab chiqish taklifini bildirdi. Ushbu talqinda Afg'onistonning hozirgi hukumatini tan olish, mamlakatni mintaqaviy maydonga va xalqaro hamjamiyatga integratsiyasini tezlashtirishga yordam beradi. Ilgariroq, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Pokistonga safarida ikki davlat rahbarlari "Toliban" hukumatini tan olish masalasida bir turdagi "mintaqaviy konsensus" yaratish g'oyasini muhokama

qilganlar. Jumladan, Qirg'izistonlik mutaxassis joriy afg'on hukumati bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishga, afg'on xalqqa zarur siyosiy va samarali iqtisodiy yordam ko'rsatishga, ularni terrorizm va giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurashda qo'llab-quvvatlashga chaqirgani ham mintaqadagi siyosiy muhitni yangilanganini ko'rsatadi[15]. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar doirasida afg'on siyosati bo'yicha tizimli va kompleks xususiyatga ega bo'lmoqda. Afg'onistonga nisbatan yangilangan yondashuvning o'ziga xos jihati shuki, u Afg'oniston hududida uzoq muddatli tinchlikka erishish va ushbu davlatni iqtisodiy aloqalarga integratsiya qilish uchun mintaqadagi davlatlar va jahon hamjamiyati sa'y-harakatlarini birlashtirishga qaratilgan haqida Sh.Mirziyoyevning tashqi aloqalar bo'yicha maxsus vakili A.Komilov tomonidan yangragandi[16].

Xulosa. Mazkur tadqiqot davomida Afg'oniston muammosining xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik tizimidagi o'rni Mintaqaviy Xavfsizlik Kompleksi nazariyasi asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Afg'onistondagi siyosiy va ijtimoiy beqarorlik Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligi, iqtisodiy integratsiyasi hamda transport-kommunikatsiya loyihalariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, afg'on muammosini faqat ichki siyosiy inqiroz sifatida emas, balki mintaqaviy xavfsizlikning ajralmas tarkibiy qismi sifatida baholash zarur.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Shanxay hamkorlik tashkiloti Afg'onistonga nisbatan pragmatik va muloqotga asoslangan siyosat yuritayotgan bo'lsa, Yevropa Ittifoqi inson huquqlari va demokratik qadriyatlarni ustuvor qo'ygan holda ehtiyotkor hamda cheklovchi yondashuvni ilgari surmoqda. ShHTning "Toliban" bilan muloqotni davom ettirishga qaratilgan siyosati mintaqaviy barqarorlikni saqlash, ekstremizm tahdidlarini kamaytirish hamda iqtisodiy loyihalarni davom ettirish nuqtai nazaridan samaraliroq ko'rinmoqda. Yevropa Ittifoqining zarurligini Afg'onistonni xalqaro maydonda yakalashga qaratilgan pozitsiyasi esa uzoq muddatda mintaqaviy integratsiya jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekistonning BMT, ShHT va boshqa xalqaro platformalar doirasidagi tashabbuslari Afg'onistonni xalqaro hamjamiyatdan yakalab qo'ymaslik, balki uni muloqot va hamkorlik asosida rivojlantirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Izlanish va tahlillardan kelib chiqib quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. ShHT doirasida "ShHT-Afg'oniston" muloqot platformasi faoliyatini institutsional jihatdan kuchaytirish hamda ushbu formatda xavfsizlik, transport, energetika va gumanitar hamkorlik bo'yicha muntazam yuqori darajadagi uchrashuvlarni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

2. O'zbekiston tashabbusi asosida Afg'onistonni Markaziy va Janubiy Osiyo bilan bog'laydigan transafg'on transport va logistika loyihalarini jadallashtirish, shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlarni ushbu infratuzilmaviy dasturlarga keng jalb etish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Arifov Eldor "Узбекистан считает важной разработку постконфликтной стратегии в отношении Афганистана" <https://y/uzbekistan-schitaet-vy-strategii-v-otnoshenii-afganistana> 2021
2. Abdurasulov J. O'zbekiston respublikasining mintaqaviy tashqi siyosatida afg'oniston vektori //«ACTA NUUZ». – 2025. – T. 1. – №. 1.6. – С. 40-43.
3. Абдурасулов Ж. Афғонистон иктисодиётини тиклашдаги тўсиклар ва истикболлар //Востоковедение. – 2022. – Т. 14. – №. 2. – С. 148-157.
4. Buzan Barry and Ole Wæverning asosiy asari - Regions and Powers: The Structure of International Security (2003)
5. Norov V. "ShHT Yangi O'zbekistonning tashqi siyosiy ustuvorliklari tizimida" 2022-yil
6. Starr F. "A 'Greater Central Asia A 'Greater Central Asia Partnership' for Afghanistan and Partnership' for Afghanistan and Its Neighbors" 2005 https://www.files.ethz.ch/isn/30296/05_Greater_Central_Asia_Partnership.pdf

7. Fergusson J. Taliban: The Unknown Enemy. Cambridge: Da Capo Press. 2020. -P.416.
8. Масадьков Таалатбек “Призвал наладить сотрудничество с нынешним афганским правительством” 2022 <https://vesti.kg/politika/item/102563-taalatbek-masadykov-prizval-naladit-sotrudnichestvo-s-nyneshnim-afganskim-pravitelstvom.html>
9. Michael Kugelman “The Next Refugee Crisis: Afghanistan” 2015 <https://www.nytimes.com/2015/10/22/opinion/021-yil-17-18-sentabr-kuni-Dushanbeda-bo-lib-o-tgan-ShHT-sammitida-SH.Mirziyoyev-nutqi>
10. Махмудов Р “O‘zbekistonning zamonaviy tashqi siyosatining afg‘on vektori” 2023-y mart.
11. Камиллов А. “Новая Центральная Азия во внешней политике Узбекистана”. 15.08.2024 <https://e-cis.info/news/566/120320/>
12. Ulug‘bek A.K., Gafarov I. CHANGING SPECIFICS OF THE REGIONAL DEVELOPMENT //International Affairs: Politics, Economics, Law. – Т. 99. – №. 100. – С. 1-3.
13. Rashidov R. “Mamlakatimiz tashqi pragmatik siyosatining amaliy ifodasi”s <https://yuz/mamlakatimiz-tashqi-pragmatik-siyosatining-amaliy-ifodasi-2022>
14. European Parliament “The situation in Afghanistan Essential benchmarks for EU engagement” 26.09.2021 -P.38.
15. “Samarqandda mintaqaviy va xalqaro hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilinadi” O‘zA siyosiy sharhlovchisi Abror G‘.ning Xaydarov A suhbatlashdi. 2022 <https://oz/posts/samarqandda>
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “ShHT – KXShT” formatidagi uchrashuvdagi nutqi. 18.09.2021. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/uz/lists/view/4623>
17. وکړه غوښتله جوړېدو د > کومت ټول گډوډه د کي افغان سرتان په هېوادونو وغړو سازمان شانز گهای د (В Шанхае страны-члены организации потребовали создания коалиционного правительства в Афганистане) 05.07.2023 <https://mfa.gov.af/13642https://8am.media/ps/the-member-countries-of-the-shanghai-organization-demanded-the-formation-of-an-inclusive-government-in-afghanistan/>
18. 2018-yil 28-mart Toshkentda o‘tkazilgan xalqaro konferensiyadagi prezident nutqidan.
19. <https://www.state.gov/under-secretary-for-political-affairs-thomas-shannon-travels-to-tashkent-uzbekistan/>
20. https://dunyo.info/cyrl/site/inner/ozbekiston_prezidentining_afgoniston_boyicha_tashabbusi_bmt_havfsizlik_kengashida_taqdim_etildi-UxJ
21. O‘zbekiston tashqi ishlar vaziri Vladimir Norovning Germaniya TIV rahbari Annalena Berбок bilan uchrashuvi yakunlariga bag‘ishlangan brifingdagi nutqi” 01.11.2022